

BOLALAR ADABIYOTI - PICTURE BOOK(RASMLI KITOB) TARJIMASI: NAZARIY ASOSLAR VA AMALIY TAVSIYALAR

Adilova Ruhshona Baxtiyor qizi

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti ,

Tarjimashunoslik fakulteti

4-kurs talabasi

ruhshona012@mail.ru

+998774128272

Annotatsiya. Ushbu maqolada bolalar adabiyotining muhim turlaridan biri — *picture book* (rasmlı kitob) tarjimasining o'ziga xos xususiyatlari yoritiladi. Rasm va matn uyg'unligi, madaniy moslik, leksik soddalik, ritm va ohangni moslashtirish, yosh psixologiyasini hisobga olish hamda qahramonlarning obrazini to'g'ri tarjima qilish kabi masalalar tahlil qilinadi. Shuningdek, o'zbek va ingliz tillaridagi bir qator ertaklar misolida tarbiyaviy, axloqiy, ilmiy va an'anaviy mazmundagi asarlarni tarjima qilish jarayonida yuzaga keladigan muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: *picture book* (rasmlı kitob), tarjima, bolalar adabiyoti, adaptatsiya, vizual narrativ, madaniy moslik, ritm, soddalashtirish

Аннотация. В данной статье освещаются особенности перевода одного из важных жанров детской литературы — пикчербука (книги с картинками). Анализируются такие вопросы, как гармония текста и иллюстраций, культурная адаптация, лексическая простота, передача ритма и интонации, учет детской психологии и корректная передача образов персонажей. Кроме того, на примере ряда узбекских и английских сказок рассматриваются проблемы, возникающие в процессе перевода воспитательных, нравственных, научных и традиционных произведений, а также предлагаются пути их решения.

Ключевые слова: пикчербук, перевод, детская литература, адаптация, визуальный нарратив, культурная адаптация, ритм, упрощение.

Abstract. This article explores the specific features of translating one of the key genres of children's literature — the picture book. It examines issues such as the harmony between text and illustrations, cultural adaptation, lexical simplicity, the adjustment of rhythm and tone, consideration of child psychology, and the accurate rendering of character images. In addition, using several Uzbek and English fairy tales as examples, the article discusses challenges that arise in translating educational, moral, scientific, and traditional works, and proposes effective solutions to address these issues

Key words; picture book(rasmlı kitob), translation, children's literature, adaptation, visual narrative, cultural appropriateness, rhythm, simplification.

Kirish

Bolalar adabiyotida picture book (rasmlı kitob) janri alohida ahamiyatga ega bo'lib, unda qisqa matn va visual tasvir uyg'unlashgan holda kichik yoshdagi o'quvchilarga ma'lumot, tarbiya va estetik zavq yetkaziladi. Tarjimon uchun bunday asarlar bilan ishlash ikki karra mas'uliyatlidir: u nafaqat matnnito'g'ri tarjima qilishi, balki rasm bilan uyg'un holda mazmunni o'quvchiga yetkazishi kerak.

Mazkur maqolada picture book(rasmlı kitob) tarjimasi bo'yicha ilmiy-nazariy qarashlar hamda o'zbek va ingliz tillaridagi ertaklar misolida amaliy tavsiyalar beriladi.

Asosiy qism

1. Matnning soddaligi va ravonligini ta'minlash

Picture booklarda(rasmlı kitob) jumlar juda sodda, ravon va bola nutqiga mos bo'lishi kerak. Tarjimada:

- 1) murakkab sintaktik birliklarni soddalashtirish;
- 2) bir jumlada bir fikr qoidasi;

3) fe'l shakllarining tabiiy, bolalar nutqiga mos ko'rinishini tanlash muhim hisoblanadi. Bu jarayon ma'noni yo'qotmasdan sodda va tushunarli uslubga o'tishni talab qiladi.

2. Rasm va matnning uyg'unligini saqlash

Picture booking(rasmiy kitob) asosiy o'ziga xos jihati — hikoyamatni rasmlar bilan birga mazmun beradi. Shuning uchun tarjimonda:

- 1) rasmda bor bo'lmagan detalni matnga kiritmaslik;
- 2) rasmda aks etgan emotsiyani so'z orqali yanada kuchaytirish;
- 3) rasmda mavjud harakat, kayfiyat va atmosferani hisobga olish talab etiladi.

Masalan, qahramon qo'rqayotgan bo'lsa, matndagi ohang ham bunga mos bo'lishi kerak.

3. Madaniy moslik masalasi

Bolalar kitoblarida madaniy elementlar ko'p uchraydi: taomlar, hayvon nomlari, bayramlar, buyumlar, iboralar va boshqalar. Tarjimon uch yondashuvdan birini tanlaydi:

- 1) To'g'ridan-to'g'ri tarjima — agar so'z oson tushunarli bo'lsa.
- 2) Madaniyatga mos ekvivalent topish — bola uchun yaqinroq variant tanlash.
- 3) Izohli tarjima — faqat zarurat bo'lsa, qisqa izoh orqali.

Bolalar uchun murakkab, uzun, ensiklopedik izohlar berish tavsiya qilinmaydi.

4. Ritm, ohang va ovoz o'yinlarini qayta yaratish

Picture booklar(rasmiy kitob) ko'pincha:

- 1) onomatopeya: splash, bang, hop
- 2) qofiya
- 3) aliteratsiya
- 4) ritmik takror kabi badiiy unsurlarga boy bo'ladi.

Tarjimon ularni o'zbek tilida tabiiy eshitiladigan variantlar bilan qayta yaratishi kerak.

Misollar:

- *Splash-splash!* → *Shalop-shalop!*
- *The tiny tiger tiptoed.* → *Kichkina yo'lbars ohista odimladi.*

Bu jarayonda to'g'ridan-to'g'ri tarjima emas, balki adaptatsiya usuli bilan tarjima ma'qul hisoblanadi.

5. Yosh psixologiyasini hisobga olish

3–7 yoshli o'quvchilar uchun:

- 1) iliq va ijobiy ohang;
- 2) qo'rqinchli sahnalarni yumshatish;
- 3) axloqiy xulosa berishda soddalik;
- 4) tanish predmetlar, hayvonlar, ranglar, kundalik voqealarga tayanish muhim.

Tarjimon yangi so'zlar bilan bolaning lug'atini boyitishi mumkin, ammo ularni ortiqcha murakkablashtirmasligi lozim.

6. Qahramon ismlarini tarjima qilish yoki qoldirish

Ismlar:

- 1) xalqaro bo'lsa — o'z holicha qoldiriladi;
- 2) talaffuzi og'ir bo'lsa — soddalashtiriladi;
- 3) ma'nosi syujet uchun muhim bo'lsa — ma'noli adaptatsiya tanlanadi.

Masalan:

Mr. Fluffy → *Pushtiq*

7. Axloqiy xabarni aniq va qisqa yetkazish

Picture booklarning(rasmlı kitob) aksariyati tarbiyaviy mazmunga ega bo'lib, tarjimon nasihat ohangini ortiqcha kuchaytirmasligi, soddalikni saqlashi, rasm-matn uyg'unligi orqali xulosani tabiiy berishi kerak.

Quyida o'zbek va ingliz tillaridagi ertaklar asosida ayrim tarjima jihatları yoritiladi.

O'zbek tilidagi ertaklarni ko'rib chiqamiz:

1. "Hovlimizdagi voqea" — do'stlik va hamjihatlik tarbiyasi.

G'oz, o'rdak, tovuq va xo'roz obrazi orqali o'zaro yordam va bag'rikenglik targ'ib etiladi. [2]

2. “Eng zo‘r chumoli” — birlikning kuchi.

Momoy va Popo suhbatlari orqali do'stlik, birdamlikning ahamiyati yoritiladi.[1]

3. “Sumalakning sehrli toshi” — milliy an'ana.

Sumalak, buvi va sehrli tosh obrazlari orqali bolaning o'ziga ishonchi mustahkamlanadi.[4]

4. “Nega yulduz tushmaydi?” — ilmiy tasavvurni shakllantirish.

Samo jismlari haqida sodda tilda tushuntirish beriladi. [3]

Ingliz tilidagi ertaklar

1. “The Ugly Duckling” — o'zini topish va mehr.

2. “You're a Big Brother” — aka-singil munosabati.

3. “Pink Is for Princesses” — erkinlik, ranglar va o'z fikriga ega bo'lish.

4. “Sleeping Beauty” — ezgulikning g'alabasi.

5. “Rapunzel” — erkinlikka intilish, ishonch vasadoqat. [7. 360-363bet]

6. “How the Leopard Got Its Spots” — ilmiy-fantastik moslashuv g'oyasi.

7. “The Three Little Pigs” — mehnatsevarlik vamas'uliyat. [7.104-105bet]

Bu ertaklarning barchasi tarjimada nafaqat matnni, balki mazmunning tarbiyaviy ruhini ham to'liq yetkazishni talab qiladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, picture book(rasmlı kitob) tarjimasi lingvistik, psixologik va madaniy kompetensiyani birlashtirgan murakkab jarayondır. Tarjimon matnni sodda va ravon qilish, rasm va matn uyg'unligini saqlash, madaniy moslikni ta'minlash, ritm, ohang va ovoz o'yinlarini qayta yaratish, yosh o'quvchi psixologiyasiga moslashtirish kabi vazifalarni puxta bajarishi lozim.

Maqolada ko'rsatib o'tilgan tavsiyalar bolalar uchun mo'ljallangan sifatli, mazmunan boy, badiiy jihatdan mukammal picture book(rasmlı kitob) tarjimasini yaratishda tarjimonlar uchun amaliy yo'l-yo'riq bo'lib xizmat qiladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLARNI TO'G'RI
RASMIYLASHTIRISH YO'RIQNOMASI**

- 1.D.Muminova. Eng zo'r chumoli. Toshkent. Akademnashr. 2024.
- 2.D.Muminova. Hovlimizdagi voqea. Toshkent. Akademnashr. 2024.
- 3.D.Muminova. Nega yulduz tushmaydi. Toshkent. Akademnashr. 2024.
- 4.D.Muminova. Sumalakning sehrli toshi. Toshkent. Akademnashr. 2024.
- 5.Nida.E.A. Toward a Science of Translating. Leiden. Brill. 1964.
- 6.Newmark.P. A Textbook of Translation. London. Prentice Hall. 1988.
7. 365 Bedtime stories and Rhymes. USA. Cottage Door Press, LLC. 2018.

